

TOSHIKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
IDSc.03/30.01.2021.1.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIKA
TADQIQOTLAR INSTITUTI

UMAROV FAXRIDDIN UMAR O'G'LI

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI INNOVATSION
RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB
QILISHNING STATISTIK TAHLILI

08.00.02 – Makroiqtisodiyot, 08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO*K: 339.727.22:330.101.541(575.1)

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in Economic Sciences

Umarov Faxriddin Umar o'g'li
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda xorijiy
investitsiyalarni jalb qilishning statistik tahlili..... 3

Умаров Фахриддин Умарович
Статистический анализ привлечения иностранных инвестиций в
инновационное развитие экономики Узбекистана..... 27

Umarov Faxriddin Umar ugli
Statistical analysis of attracting foreign investment in the innovative
development of the economy of Uzbekistan..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 58

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.1.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIKA
TADQIQOTLAR INSTITUTI

UMAROV FAXRIDDIN UMAR O'G'LI

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI INNOVATSION
RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB
QILISHNING STATISTIK TAHLILI

08.00.02 – Makroiqtisodiyot, 08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2021.1.PhD/Iqt138 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Kadrlar malakasini oshirish va statistika tadqiqotlar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtorferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash web-sahifasi
(http://instat.uz) va "Ziynet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manziligiga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Eshazarov To'lg'in Sheraliyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: Berkinov Bazarbay
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Valiyev Bobir Botirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Qarshi davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi
DSc.03/30.01.2021.1.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 19 "11" kuni soat 16 daqi
majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 232-69-92; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish
mumkin 19 "11" raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov
ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 232-69-92. info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtorferati 2025-yil 19 "11" kuni tarqatildi.
(2025-yil 19 "11" daqi 16 raqamli reyestr bayonnomasi.)



S.K. Xudoyqulov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

B.E. Mamaraximov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

Daglova U.V. Gafurov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv jarayonlarining tezlashib borishi hozirgi davrda mamlakatlar iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini oshirishni taqozo etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Xususan, iqtisodiy o'sish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xorijiy kapital oqimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va BMTning savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD) ma'lumotlariga ko'ra, "2024-yilda jahon bo'yab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTX) hajmi 1,7 trillion AQSh dollariga teng bo'ldi, bu esa global iqtisodiy o'sishning muhim tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda"¹. Ushbu holat mamlakatlarda xorijiy investitsiyalarni jalb etish hududlar iqtisodiy salohiyatidan keng foydalanish zarurligini namoyon etadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalar oqimining 70-80 %dan ortig'i innovatsion tarmoqlarga – yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari, biotexnologiya, sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilgan mamlakatlar ancha tez rivojlanmoqda. Ko'plab olib borilgan tadqiqotlarda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning turli vositalaridan foydalanish masalalari keng yoritib berilgan. Ammo innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni maqsadli yo'naltirish masalalari ilmiy tadqiqotlarda atroflicha o'rganilmagan.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida xorijiy investitsiya muhiti va biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash, xorijiy sarmoyalarni ilg'or texnologiyalarni joriy qilishga yo'naltirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi" PF-158-sonli farmonida "Mamlakatimizning har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish belgilangan"². Jahon banki, O'zbekiston Markaziy banki, Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonga jalb etilgan sof xorijiy investitsiyalar hajmi 13,15 milliard AQSh dollarini tashkil etib, bu 2023-yilga nisbatan 14,3 %ga ko'proqdir. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonining statistik tahlili, ularning iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishiga ta'siri o'rganish hamda investitsiya oqimlarini samarali boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur dissertatsiya O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan xorijiy investitsiyalar oqimini tahlil qilish, ularning statistik modelini yaratish va ularni optimal boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha

¹ <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2024>

² <https://lex.uz/ru/docs/-6600413> // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-sonli farmoni.

o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan strategik investitsiya faoliyatining murakkab va tarmoqlararo o'zaro bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayoni sifatida takomillashtirilgan;

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar kesimida makroiqtisodiy samaradorlikni baholashning xorijiy investitsiyon hudud va tarmoq darajasi bo'yicha "yuqori" ($0,75 < XI_{HT, y} \leq 1,00$), "o'rta" ($0,55 \leq XI_{HT, o} \leq 0,74$), "past" ($0,1 \leq XI_{HT, p} \leq 0,54$) guruh chegaralari asoslangan;

xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat hududlari va iqtisodiy tarmoqlarning muhimlik darajasini ifodalovchi iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalarning integral ko'rsatkichlar hisobi asosida qishloq xo'jaligida ($XI_{qk} = 0,18$), sanoatda ($XI_s = 0,54$), xizmatlar sohasida ($XI_x = 0,28$)gi qiymatlari aniqlangan;

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar oqimi va innovatsion rivojlanish jarayonining ekzogen o'zgaruvchilarini hisobga olgan avtoregressiv integratsiyalashgan siljuvchi o'rta model asosida 2030-yilga qadar xorijiy investitsiyalarni jalb etishning optimistik, pessimistik va o'rtacha prognozlarini ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Real sektorning raqobatchilikni ta'minlashda xorijiy investitsiyalarga qaratilgan nazariy-metodologik va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

iqtisodiyotning turli tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari va yo'llari ishlab chiqilgan;

xorijiy investitsiyalarni jalb etishda xorijiy tajribalarni (usullarni) joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan;

iqtisodiyotga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalarni baholash usullarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarga muhtoj sohalarni aniqlash va ularga samarali loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ilmiy takliflar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. O'zbekistonda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy va amaliy muammolariga bag'ishlangan tadqiqot mualliflarining ilmiy qarashlarini o'rganish, sohaga oid xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini tadqiq etish, ekspert baholash natijalariga, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari asosida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning o'z faoliyatini takomillashtirishga doir amaliy tadbirlarni ishlab chiqishda, qisqa va uzoq muddatlarga mo'ljallangan iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va dasturlarini tuzishda keng foydalanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan respublikada turizm tarmog'ini samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda, shuningdek, iqtisodiyot yo'nalisidagi oliy o'quv yurtlarida "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish", "Investitsiya loyihalar tahlili", "Milliy hisoblar tizimi", "Makroiqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot", "Bank ishi", "Tarmoqlar statistikasi" kabi fanlardan o'quv

dasturlar, darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish ko'lamini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish" tushunchasining iqtisodiy mazmunini ilg'or texnologiyalar, intellektual resurslar va xalqaro boshqaruv tajribasini milliy iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiyalashtirish orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, tarkibiy transformatsiyani rag'batlantirish, raqobatchilikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan strategik investitsiya faoliyatining murakkab va tarmoqlararo o'zaro bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayoni sifatida takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabarlari uchun tavsiya etilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 24-dekabrda 33/60-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalar strategik investitsiya faoliyatining murakkab va tarmoqlararo o'zaro bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayoni sifatida takomillashtirilgan iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkonini yaratilgan;

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar kesimida makroiqtisodiy samaradorlikni baholashning xorijiy investitsion hudud va tarmoq darajasi bo'yicha "yuqori" ($0,75 \leq XI_{HT, y} \leq 1,0$), "o'rta" ($0,55 \leq XI_{HT, o} \leq 0,74$) va "past" ($0,1 \leq XI_{HT, p} \leq 0,54$) guruh chegaralarini asoslash taklifi O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 24-dekabrda 33/60-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning qo'shimcha 12 %gacha o'rishi hamda xorijiy investitsiyalarni eng ko'p qaysi hudud va qaysi tarmoqqa jalb etishni aniqlashning tezkor va shaffof mexanizmi yaratilgan;

xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat hududlari va iqtisodiy tarmoqlarning muhimlik darajasini ifodalovchi iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalarning integral ko'rsatkichlar hisobi asosida qishloq xo'jaligida ($XI_{qk} = 0,18$), sanoatda ($XI_s = 0,54$), xizmatlar sohasida ($XI_x = 0,28$)gi qiymatlarini aniqlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 24-dekabrda 33/60-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida xorijiy investitsiyalar ta'sir etuvchi omillar guruhlangan va monitoring qilib borish imkoniyati hosil bo'lgan;

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar oqimi va innovatsion rivojlanish jarayonining ekzogen o'zgaruvchilarini hisobga olgan avtoregressiv integrallashgan siljuvchi o'rta model asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan xorijiy investitsiyalarni jalb etishning optimistik, pessimistik va o'rtacha prognozlarini O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston

Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 24-dekabrda 33/60-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2030-yilga borib xorijiy investitsiyalar hajmi 10 mlrd AQSh dollaridan ortishi prognoz qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur ish natijalari 15 ta, jumladan, 10 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy-uslubiy asoslari"** deb nomlanib, bunda xorijiy investitsiyalar tushunchasining nazariy asoslari va iqtisodiy ahamiyati, ularning ko'lamini oshirishning jihatlari hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning xorij tajribasi masalalari ochib berilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari – chet elik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari hisoblanadi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan uslubiy yondashuv asosida "iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish" tushunchasi yangicha mazmunda talqin etildi. Mazkur yondashuvga ko'ra, xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyot tarmoqlariga ilg'or texnologiyalar, intellektual salohiyat va xalqaro boshqaruv tajribasini transfer qilish orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi, tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtiruvchi hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtaiy nazaridan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayoni iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiluvchi kompleks, tarmoqlararo va o'zaro integratsiyalashgan ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm sifatida qaratiladi.

Bu yondashuvning nazariy asosini ishlab chiqish jarayonida xorijiy investitsiyalar samadorligini baholovchi integral ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar o'rnini statistik baholashda ko'rsatkichlar tizimi⁶

Ko'rsatkichning nomlanishi	Hisoblanishi	Ta'rif
Xorijiy investitsiyalar samadorligi	$ICOR = \frac{\Delta X_{INVESTITSIYALAR}}{\Delta YAIM}$	Mazkur ko'rsatkich to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun taklif qilinadi
Xorijiy investitsiyalarning o'zlashtirish darajasi	$XIO'D = \frac{Real\ s.\ x.\ investitsiyalar}{Umumiy\ x.\ investitsiyalar}$	Mazkur ko'rsatkich xorijiy investitsiyalar uchun taklif qilinadi
Xorijiy investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiya indeksi	$XITDI = 1 - \sum_{i=1}^n T_i^2$	Mazkur indeksni qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat bo'yicha shakllantirish maqsadga muvofiq
Innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning jalb qilish indeksi	$INRXI = \frac{INH}{X_{Investitsiyalar}}$	Mazkur ko'rsatkichni: 1. Startup lohiyalar, 2. Patentlangan mahsulotlarni ishlab chiqarish; 3. Zamonaviy texnologiyalar, 4. Yangi mahsulotlar; 5. Yangi korxonalar uchun hisoblash taklif qilinmoqda
Xorijiy investitsiyalarning ulushi	$XIU = \frac{XI}{Investitsiyalar}$	Mazkur ko'rsatkichni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun hisoblash taklifi
Xorijiy investitsiyalarning mamlakatlar diversifikatsiyasi bo'yicha indeksi	$XIMDI = 1 - \sum_{i=1}^n MXIU_i^2$	Mazkur indeksning monitoringini amalga oshirish, investitsiya xavfsizligini ta'minlash, ya'ni biror davlatga bog'lanib qolish darajasini aniqlab borish
Xorijiy investitsiyalarning hududlar bo'yicha indeksi	$XIHl = \frac{HXU}{XI}$	Har bir hududning jozibador iqtisodiy tarmog'ini aniqlash taklifi

Ular orqali mamlakat hududlari va iqtisodiyot tarmoqlarida xorijiy kapitalning innovatsion rivojlanishga qo'shayotgan hisssasi, investitsiya oqimlarining muhimlik darajasi hamda ularning iqtisodiy o'sish, tarkibiy transformatsiya va raqobatbardoshlikdagi roli aniqlab beriladi.

Shu tariqa, taklif etilgan konseptual yondashuv xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini oddiy kapital qo'yilma sifatida emas, balki milliy innovatsion tizimning tarkibiy elementi va strategik rivojlanish drayveri sifatida talqin etish imkonini beradi.

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur jadvalda berilgan ko'rsatkichlar tizimining har biri uchun mualliflik yondashuvi shakllantirilgan hamda bir qator ko'rsatkichlar taklif qilingan, xususan, ko'rsatkichlarning xorijiy investitsiyalarning innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishdagi xususiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Muallif tomonidan innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish indeksi ilmiy asoslangan holda taklif qilingan (1-jadval, 4-ko'rsatkich).

$$INRXI = \frac{INH}{X_{investitsiyalar}} \quad (1)$$

Bunda: INRXI – iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda yo'naltirilgan mablag'lar, ayniqsa xorijiy investitsiyalardan foydalangan holda ularni moliyalashtirish nazarda tutilmoqda. Bularga ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlari, startup loyihalar, patentlangan mahsulotlarni ishlab chiqarish, zamonaviy texnologiyalar, yangi mahsulotlar hamda yangi korxonalar uchun xorijiy investitsiyalar kiradi. Ushbu ko'rsatkichning birdan katta bo'lishi xorijiy investitsiyalardan foydalanishda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishdan yuqori bo'layotganligini namoyon etadi.

Bu ko'rsatkichdan boshqa taklif qilinayotgan ko'rsatkichlar ham xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni statistik baholashda o'rni beqiyosdir, ularning barchasi birgalikda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning amal qilish mexanizmini hosil qiladi (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning amal qilish mexanizmi⁷

Fikrimizcha, 1-rasmda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning butun xorijiy investitsion muhitini to'liq ifodalaydi.

Umuman olganda, investitsiyalar hududlarni barqaror rivojlantirishda muhim omil bo'lib, u kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosini tashkil etgan holda, hududda yetarli investitsiyalarning sarflanishi, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi. Ma'lumki, har qanday davlat jahon

tajribalarini o'rganmasdan, dunyodagi yetakchi davlatlarning ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan turib rivojlanish olmaydi. Binobarin, mamlakat iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti asosan investitsiyalarga, xususan, biznesda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavsallchilikka va o'zaro ishonchga asoslangan to'g'ri rivojlanishda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish indeksi ilmiy asoslangan holda taklif qilingan (1-jadval, 4-ko'rsatkich).

Xorijiy investitsiyalarning eng asosiy turi bo'lgan to'g'ri rivojlanishda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish indeksi ilmiy asoslangan holda taklif qilingan (1-jadval, 4-ko'rsatkich).

Ushbu holatning yuzaga kelishini bevosita jahondagi geosiyosiy vaziyat, mamlakatlar o'rtasida ayniqsa, AQSh va Xitoy o'rtasidagi "savdo urushi", ayrim mamlakatlarga qo'llanilgan iqtisodiy cheklov sanksiyalari va boshqa omillar bilan bog'lash mumkin.

Yuqorida taklif etilgan konseptual yondashuv, ishlab chiqilgan integral ko'rsatkichlar tizimi hamda xorijiy investitsiyalarni hudud va tarmoqlar kesimida baholash mexanizmlarini hisobga olgan holda, "iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish" tushunchasi yangicha ilmiy mazmunga ega bo'ldi. Ushbu yondashuv xorijiy kapitalning nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlariga, balki innovatsion transformatsiya, texnologik modernizatsiya va tarkibiy o'zgarishlarga bevosita ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Natijada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayoni iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish hamda hudud va tarmoqlar bo'yicha investitsiya oqimlarini muvozanatli taqsimlashni ta'minlovchi ilmiy asoslangan mexanizm sifatida takomillashtirildi. Shu bilan birga, ishlab chiqilgan integral baholash usuli amaliyotda xorijiy investitsiyalar samaradorligini tahlil qilish, ustuvor yo'nalishlarni aniqlash va resurslarni optimal taqsimlash bo'yicha qaror qabul qilish jarayonini raqamlashtirish va shaffolashtirish imkonini beradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish imkonini berishi zarur.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy tendentsiyalari" deb nomlangan bo'lib, unda xorijiy investitsiyalarning keyingi yillardagi holati, o'zgarish tendentsiyalari hamda birinchi bobda taklif qilingan ko'rsatkichlar tizimi qiymatlari va koeffitsiyentlari tahlil qilingan.

Mamlakat hududlarida iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish jarayonini oshirish, texnologik va takror ishlab chiqarish tarkibini optimallashtirish hamda

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

yuqori samaradorlikni ta'minlashda xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyatga ega. Xorijiy investitsiya resurslarini iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish holatidan kelib chiqib, ishlab chiqarishning ustuvor tarmoqlariga faol jalb qilish hamda investitsiyalar qaytishi darajasini oshirishni zamonning o'zi talab qilmoqda.

2010–2024 yillar oralig'idagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, global miqyosda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimlari sezilarli o'zgarishlarga uchragan.

2-jadval
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar balansining dinamikasi (mlrd AQSh dollari)⁸

Davlatlar/ yillar	2010	2015	2020	2024
G'arbiy va Markaziy Afrika	18,87	16,60	10,86	18,76
Yevropa Ittifoqi	480,13	849,89	179,06	294,99
Qozog'iston	7,46	6,58	7,21	-0,68
Qirg'iziston	0,47	1,14	-0,40	0,71
Tojikiston	0,09	0,45	0,11	0,29
Turkmaniston	3,63	3,04	1,44	1,64
O'zbekiston	1,66	1,04	1,73	2,69
Dunyo davlatlari	1843,45	2791,85	1186,58	1563,74

2010–2015 yillarda iqtisodiy faollik va moliyaviy bozorlarning kengayishi natijasida jiddiy o'sish kuzatilgan bo'lsa, 2020-yilda pandemiya va geoiqtisodiy beqarorliklar sabab keskin pasayish sodir bo'lgan. 2024-yilda esa jahon miqyosida tiklanish tendensiyasi kuzatilib, investitsiya oqimlari qayta o'sish bosqichiga kirgan. Mintaqaviy nuqtai nazardan, Yevropa Ittifoqi hali ham eng yirik investitsiya markazi sifatida ajralib turadi, G'arbiy va Markaziy Afrika esa o'zgaruvchan, ammo nisbatan ijobiy dinamikani namoyon etmoqda.


Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa umumiy FDI hajmi past darajada saqlanib, bu holat iqtisodiy diversifikatsiyaning sustligi, institutsional muammolar va kapital bozorlarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda mintaqada investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar natijasida xorijiy sarmoyalarning asta-sekin o'sib borayotganligi kuzatilmoqda, bu esa global investitsiya oqimlari tiklanishining mintaqaviy aks-sadosi sifatida baholalanadi.

2005–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb qilingan sof investitsiyalar o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, xorijiy investitsiyalar 2005-yildagi 0,91 mlrd AQSh dollaridan 2024-yilga 13,15 mlrd AQSh dollariga, ya'ni 15 marta ortgan (2-rasm).

⁸ World Bank data mamlotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

8 Xorijiy investitsiyalar, mlrd AQSh dollari

9 TTXI, AQSh dollari



2-rasm. 2005–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga o'zlashtirilgan xorijiy va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar balansi, (mlrd. AQSh dollari)⁹

Xorijiy investitsiyalarning tarkibida to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning miqdori ham ortib borayotganligini 2-rasmdan kuzatishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga 2024-yilda 2,69 mlrd AQSh dollariga teng sof to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilingan.

3-jadval
O'zbekiston Respublikasida 2000–2024-yillarda xorijiy investitsiyalarning asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyadagi ulushi, (%da)¹⁰

Hududlar \ yil	2000	2005	2010	2015	2020	2024
O'zbekiston Respublikasi	23,2	21,7	26,4	18,5	42,7	56,7
shu jumladan:						
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6,6	23,4	12,6	48,2	38,9	56,6
Andijon viloyati	4,5	19,6	8,2	4,4	36,3	63,9
Buxoro viloyati	10,5	10,8	63,2	35,9	48,2	72,1
Jizzax viloyati	28,9	6,2	7,6	2,9	61,9	70,7
Qashqadaryo viloyati	31,3	11,8	26,5	17,6	69,3	58,0
Navoiy viloyati	20,3	23,5	25,2	3,0	67,8	66,7
Namangan viloyati	2,3	12,3	4,7	21,9	37,2	55,7
Samarqand viloyati	13,3	17,7	3,2	4,0	27,0	49,3
Surxondaryo viloyati	4,9	6,3	5,2	10,4	60,1	66,0
Sirdaryo viloyati	21,7	17,6	9,6	10,8	48,7	81,4
Toshkent viloyati	31,1	16,6	16,4	15,3	26,7	56,0
Farg'ona viloyati	27,3	10,1	12,3	7,6	41,3	51,8
Xorazm viloyati	9,5	15,1	9,8	2,7	32,0	47,4
Toshkent shahri	34,2	42,3	39,5	13,0	29,9	40,3

⁹ Jahon banki, O'zbekiston Markaziy banki, Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asoslanib muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xorijiy investitsiyalarning umumiy investitsiyadagi ulushi yildan yilga ortib bormoqda, har bir viloyat va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida xorijiy investitsiyalarni hajmi ortishi uchun yo'l xaritalari, dasturlar va qarorlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga 2000-yilda jalb qilingan umumiy investitsiyalarning 23,2 foizi xorijiy investitsiyalar va chet el kreditlari bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 56,7 foiz ga yetgan (3-jadval).

3-jadval ma'lumotlaridan shuni aniqlashimiz mumkin, 2000–2024-yillardagi xorijiy investitsiyalar umumiy investitsiyadagi eng kam ulushi 2000-yilda Namangan viloyatiga to'g'ri kelgan bo'lib, ushbu yilda umumiy investitsiyalarning 2,3 foizi xorijiy investitsiyalarni tashkil qilgan. 2024-yilda umumiy investitsiyalarning 81,4 foizi, ya'ni boshqa viloyat va 2000–2024-yillardagi eng katta ulush bu Sirdaryo viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

3-jadvaldan qiyosiy tahlillar, 2015-yilda xorijiy investitsiyalarning ulushi keskin kamayganligini, faqatgina 2016-yildan keyin valyuta ayirboshlash sohasida, iqtisodiyotni erkinlashuvi va innovatsion rivojlanishi kabi yangi O'zbekiston iqtisodiyotiga xos xususiyatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda eng asosiy omillar bo'lganligi aniqlandi.

Hududiy iqtisodiy siyosatni izchil amalga oshirish istiqbolda hududiy investitsion siyosatning strategik yo'nalishlarini belgilab olishni fundamental asoslarini tashkil qiladi.

Respublika yalpi ichki mahsulotiga mintaqaning yalpi hududiy mahsulotlarining ta'sirini statistik tahlillari davomida iqtisodiyoti rivojlangan mintaqalarning ulushi mamlakat iqtidodiyotiga ta'siri yuqori ekanligi aniqlandi. Bu esa, mintaqalarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari va ishlab chiqarigan innovatsion mahsulotlar hajmiga bog'liqligi statistik o'rganishlarni taqozo qildi.

Ammo, ushbu jalb qilingan investitsiyalarning samaradorligi har bir mintaqaning iqtisodiyotidagi ta'sirida deyarli sezilmagan. Bunday xulosaga kelish uchun ikki xil gipotezani ilgari surish mumkin, birinchi, investitsiya kiritilgan yil iqtisodiyotga ta'sir qilgan bo'lsin degan gipoteza, ikkinchi, investitsiya kiritilgan yildan keyin ikki yil (shartli, bir necha yil ham bo'lishi mumkin) o'tib iqtisodiyotga ta'sir qilgan degan gipoteza.

Taklif qilingan yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olishning ma'muriy reglamentiga ko'ra:

Bugungi kunda O'zbekiston Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki kabi yirik xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan. 2024-yilga kelib, mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya kiritgan mamlakatlar soni 50 dan ortdi. Ularning orasida Rossiya, Xitoy, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda.

ICOR indeksi qanchalik past bo'lsa, mamlakatning iqtisodiy o'sishida investitsiyalardan foydalanish samaradorligi yuqori bo'ladi. Bu yerda mamlakatning iqtisodiy o'sishida investitsiyalarning ahamiyati yuqoriligini, o'zlashtirilgan har bir birlik investitsiya o'zidan oldingi darajadan yuqori bo'lgan

miqdorda mahsulot yaratish imkonini beradi. Bu esa mavjud holatda iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishni yanada kuchaytirish kerakligini taqozo etadi. ICOR indeksi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakatning iqtisodiy o'sishida investitsiyalardan foydalanish samaradorligi past bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy o'sishida investitsiyalarning ahamiyati pastligidan guvohlik beradi, o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar bilan iqtisodiy o'sish o'zaro muvofiqlashmagan (4-jadval).

4-jadval

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalarning samaradorligini baholashning ICOR indeksi¹¹

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	2,3	2,8	3,5	4,2	4,8	6,9	11,8	18,5	20,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,1	0,2	0,4	0,5	0,3	0,3	0,6	0,8	0,7
Andijon	0,1	0,1	0,2	0,2	0,2	0,3	0,4	0,7	0,9
Buxoro	0,2	0,3	0,3	0,4	0,6	1,1	0,9	1,0	1,2
Jizzax	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,2	0,3	0,7	1,2
Qashqadaryo	0,3	0,3	0,4	0,6	0,7	1,1	1,6	2,4	2,0
Navoiy	0,2	0,2	0,2	0,2	0,3	0,4	1,0	1,7	1,5
Namangan	0,1	0,1	0,2	0,2	0,3	0,3	0,8	1,1	1,1
Samarqand	0,1	0,2	0,2	0,3	0,3	0,4	0,7	1,0	1,4
Surxondaryo	0,1	0,1	0,1	0,2	0,2	0,3	0,7	1,1	1,0
Sirdaryo	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,2	0,3	0,5	0,7
Toshkent	0,2	0,3	0,4	0,4	0,4	0,6	1,1	1,9	2,1
Farg'ona	0,1	0,2	0,2	0,2	0,3	0,3	0,5	0,8	1,1
Xorazm	0,1	0,1	0,2	0,1	0,1	0,2	0,3	0,5	0,5
Toshkent sh.	0,5	0,5	0,5	0,6	0,8	1,2	2,4	3,9	4,9

Hududlar kesimida investitsiyalarning samaradorligini baholashning ICOR indeksi natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatda so'nggi 5 yillikda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar samaradorligi pasaymoqda. Aytish kerakki, ICOR – bu mamlakat yoki boshqa korxona uchun keyingi ishlab chiqarish birligini yaratish uchun zarur bo'lgan investitsiya kapitalining chegaraviy miqdorini baholovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Shu sababli, mazkur ko'rsatkich qanchalik kichik bo'lsa, shunchalik ijobiy baholanadi. Yuqoridagi tahliliy jadval mamlakatimizdagi real sektorga kiritilgan investitsiyalar samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Bu boradagi ijobiy ko'rsatkich, ya'ni ICOR indeksining 2021-yilda 2020-yilga nisbatan pasayishi Qashqadaryo, Navoiy va Jizzax viloyatlarida qayd etilgan.

Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning 30,5 foizi savdo, 27,5 foizi sanoat, 8 foizi qurilish, 4,8 foizi qishloq xo'jaligi, 4,1 foizi yashab turish va ovqatlanish muassasalari, 2,9 foizi saqlash va tashish, 4,8 foizi aloqa va axborot yo'nalishlarida, 17,4 foizi boshqa sohalarida faoliyat yuritmoqda.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xorijiy investitsiyalar hisobidan ITTKIga sarf-xarajatlar past darajada, sababi xorijiy tashkilotlarning davlat ITTKIga buyurtmalari faqat xalqaro fondlar tomonidan grandlar ajratish asosida moliyalashtirish holatlarini kuzatildi.

Innovatsion iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmi barcha davlatlar uchun an'anaviy holga ega moliyalashtirish bo'lib, O'zbekistonda keng qo'llanilib kelinayotgan innovatsion dasturlar, farmonlar va qarorlar asosida Innovatsion rivojlanish agentligi, IIm-fanni moliyalashtirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi va boshqa yo'nalishdagi jamg'armalar asosida olib borilmoqda. Jumladan, Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan 2019-2024-yillar mobaynida jami 1066 ta turli yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot loyihalari moliyalashtirilgan, ularning eng katta qismi (218 ta) qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri kelgan.

Mamlakatda ITTKIlarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi jadval ma'lumotlari kelib chiqadi (5-jadval). 5-jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, 2016-yilga nisbatan 2024-yilda 4,9 barabarga davlat tarmoqlarini ITTKIga sarf-xarajatlari oshgan. Agar unga tarkibiy jihatidan qaraydigan bo'lsak, har yili taxminan 63-70 foiz atrofida davlat byudjeti xarajatlari tashkil etib turibdi.

Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni moliyalashtirishda davlat sektorining ulushi yuqori bo'lishligi, odatda, katta investitsiyalarni talab qiladigan yirik loyihalar, masalan, mudofaa, aerokosmik, yadro sanoati yoki ilmiy-texnikaviy rivojlanish bo'yicha davlat strategiyalarini amalga oshirish uchun xos bo'lganligi sababidir. Undan tashqari davlat tashkilotlarining shaxsiy mablag'lari taxminan 10-19 foiz atrofida tashkil etmoqda, bu korxonani ichki mablag'larini o'z ehtiyojidagi tadqiqotlarni moliyalashtirish yo'nalitirganidan dalolat beradi.

5-jadval
Innovatsion iqtisodiyotni moliyalashtirish manbalari bo'yicha xarajatlar
(mlrd so'm)¹²

Ko'rsatkich	yillar						
	2016	2020	2021	2022	2023	2024	O'zlashtirish, marta
Jami	166,2	304,1	383,2	432,1	586,5	829,2	4,9
Jami davlat byudjeti	129,3	242,3	322,0	345,8	437,6	525,0	4
Byudjetdan tashqari fond mablag'lari	14,4	22,4	24,6	12,9	78,8	77,2	5,3
Shaxsiy mablag'lar	15,0	30,0	32,8	48,1	43,6	165,5	11
Buyurtmachi mablag'lari	6,3	7,3	3,6	25,2	24,2	57,2	9,1
Xorijiy manbalar mablag'lari	1,3	1,9	0,1	-	2,2	4,2	3,2

Har bir hudud – tarmoq juftligi (i, j) uchun xorijiy investitsiyalarni hudud va tarmoq bo'yicha jalb qilish darajasi (XIHT_{ij}) quyidagicha aniqlanadi:

$$XIHT_{ij} = w_1 \cdot I_{ij} + w_2 \cdot E_{ij} + w_3 \cdot S_{ij} + w_4 \cdot P_{ij} \quad (2)$$

Bu yerda:

i – hudud (1...14),

j – tarmoq (1-qishloq xo'jaligi, 2-xizmatlar, 3-sanoat),

I_{ij} – xorijiy investitsiyalar hajmining nisbiy indeksi,

E_{ij} – investitsiyalarning iqtisodiy samaradorlik indeksi (masalan, tarmoq YalM o'sish sur'ati yoki ishlab chiqarish hajmi o'sishi),

S_{ij} – jitmioy samaradorlik (ish o'rinlari, bandlik darajasi),

P_{ij} – hududning resurs va infratuzilma salohiyati indeksi,

w₁,...w₄ – og'irlik koeffitsiyntlari (ahamiyat darajasiga qarab, masalan:

w₁=0,4; w₂=0,3; w₃=0,2; w₄=0,1).

Tadqiqot jarayonida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat hududlari kesimida makroiqtisodiy samaradorlikni baholashning ilmiy asoslangan yondashuvi ishlab chiqildi.

Shu asosda xorijiy investitsion faoliyatning hududiy va tarmoqlararo darajasini aniqlovchi integral ko'rsatkichlar uchun baholash mezonlari va guruh chegaralari belgilandi. Xususan, xorijiy investitsion jozibadorlik darajasi bo'yicha tarmoqlarva hududlar "yuqori" ($0,75 \leq XIHT_{ij} \leq 1,0$), "o'rta" ($0,55 \leq XIHT_{ij} \leq 0,74$) hamda "past" ($0,1 \leq XIHT_{ij} \leq 0,54$) toifalarga ajratilishi ilmiy asoslab berildi.

Ushbu yondashuv xorijiy investitsiyalar oqimini baholashda hudud va tarmoq miqyosida samaradorlik, resurs salohiyati va innovatsion faollik darajasini kompleks tarzda hisobga olish imkonini yaratdi hamda investitsion siyosatni ustuvor yo'nalishlar bo'yicha optimallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat ITTKIga xususiy buyurtmachilar ham mablag' sarflagani, o'zi uchun zarur bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlariga buyurtmalar berganligini ham ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan XIHT metodikasi asosida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat hududlari va iqtisodiy tarmoqlarning muhimlik darajasi baholandi. Baholash jarayonida xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishdagi o'rni, ularning samaradorlik, jitmioy ta'sir va resurs salohiyati mezonlari bo'yicha integral ko'rsatkichlar shakllantirildi. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalarning koeffitsiyntlari taklif qilingan integral ko'rsatkichlar hisobi asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi (6-jadval).

6-jadval

Natijani baholash mezonlari¹³

Oraliq	Baholash darajasi	Talqin
$0.75 \leq XIHT \leq 1.00$	Yuqori	Xorijiy investitsiyalar uchun yuqori jozibador tarmoq-hudud
$0.55 \leq XIHT \leq 0.74$	O'rt	Potensial mavjud, ammo to'liq ishlatilmagan hudud yoki tarmoq
$0.10 \leq XIHT \leq 0.54$	Past	Investitsiya samaradorligi past yoki jozibadorlik yetarli emas

Taklif qilinayotgan mazkur ko'rsatkichlar iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda hudud va iqtisodiy tarmoq

¹³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

muhimligini ifodalab berishda ilmiy asos hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish uchun eng avvalo sanoatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilib iqtisodiy o'sishni ta'minlash ilmiy asoslab berildi, xususan, bunda koeffitsiyent 0,54 ga teng. Hudud bo'yicha esa sanoatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda Toshkent, Farg'ona va Navoiy viloyatlari ustuvorlikka ega, mos ravishda koeffitsiyentlar 0,55, 0,52 va 0,44 gali aniqlandi.

Hisob-kitoblar natijasida qishloq xo'jaligi tarmog'ida $XI_{qx} = 0,18$, xizmatlar sohasida $XI_x = 0,28$, sanoat tarmog'ida esa $XI_s = 0,54$ qiymatlar olindi. Bu natijalar xorijiy investitsiyalarni jalb etish nuqtayi nazaridan sanoat tarmog'i nisbatan yuqori investitsion jozibadorlikka ega ekanini, xizmatlar sohasi o'rti darajada, qishloq xo'jaligi esa past darajadagi jalb etuvchanlikni namoyon etayotganini ko'rsatadi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan metodika xorijiy investitsiyalar oqimini tarmoqlar bo'yicha differensial tahlil qilish, ularning iqtisodiy samaradorlik va innovatsion rivojlanishdagi nisbiy hissasini aniqlash imkonini beradi.

7-jadval
O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishda hududlar va sohalar kesimida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning integral ko'rsatkichlari¹⁴

Hududlar	Qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish uchun	Sanoatni innovatsion rivojlanish uchun	Xizmatlar sohasini innovatsion rivojlanish uchun
O'zbekiston Respublikasi	0,18	0,54	0,28
Sirdaryo	0,026	0,028	0,009
Jizzax	0,022	0,037	0,011
Andijon	0,014	0,032	0,014
Qashqadaryo	0,015	0,035	0,015
Namangan	0,017	0,031	0,017
Surxondaryo	0,019	0,034	0,018
Toshkent	0,018	0,042	0,019
Navoiy	0,011	0,044	0,021
Farg'ona	0,007	0,052	0,022
Xorazm	0,023	0,029	0,023
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,012	0,033	0,023
Buxoro	0,008	0,041	0,028
Toshkent sh.	0	0,055	0,031
Samarqand	0,009	0,036	0,034

Natijalar asosida iqtisodiy siyosatda xorijiy investitsiyalarni sanoat va xizmatlar tarmoqlariga ustuvor yo'naltirish, qishloq xo'jaligida esa institutsional va texnologik qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish zarurligi aniqlanadi.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "O'zbekistonda iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish" deb nomlangan bo'lib, unda xorijiy investitsiya jozibadorligini oshirishdagi mavjud muammolar, investitsiya jozibadorligini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning iqtisodiyotga ta'sirini har tomonlama o'rganish uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tanlash ilmiy jihatdan asoslangan yondashuvni talab etadi. Ushbu tadqiqot doirasida YaIM o'sishi, valyuta kursi, inflyatsiya darajasi, Markaziy bank foiz stavkasi hamda innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy modelning asosiy ko'rsatkichlari sifatida tanlandi. Ushbu ko'rsatkichlar xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga ta'sirini kompleks baholash uchun xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladi va makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy indikatorlari hisoblanadi.

Fikrimizcha, YaIM o'sishi xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy taraqqiyotga qo'shgan hissasini o'lchashning fundamental mezon bo'lib, investitsiyalar oqimining ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Valyuta kursi esa xorijiy kapital jalb qilishning muhim shartlaridan biri bo'lib, investitsiya jarayonlarining barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar hajmining o'rtishi milliy valyuta kursining mustahkamlanishiga yoki aksincha, kapital chiqimlari natijasida uning zaiflashishiga sabab bo'lishi mumkin (8-jadval).

8-jadval

O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ARDL modeli uchun tanlab olingan ko'rsatkichlarning tasviri statistikasi¹⁵

Ko'rsatkichlar	O'rtachasi	Eng kichik qiymati	Eng katta qiymati
Xorijiy investitsiyalar (mlrd AQSh dollarida)	3869,42	653,27	13149,58
Yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishi (%)	6,35	1,56	9,47
O'z kuchi bilan ishlab chiqilgan innovatsion mahsulotlar hajmi (mlrd so'm)	28297,36	4469,895	55746,51
Valyuta ayirboshlash kursi (USD-AQSh)	4419,08	325	12920,48
Inflyatsiya (%)	21,8848	8,93	48,58
Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi	18,14	12,0	37,0

Inflyatsiya darajasi ham investitsion muhit barqarorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, uning barqaror darajada ushlab turilishi xorijiy investorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Inflyatsiyaning keskin o'zgarishi investitsiya risklarini oshirib, kapital jalb qilish jarayonlarini murakkablashtirishi mumkin. Shu bilan birga, Markaziy bankning foiz stavkasi ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishda muhim omil bo'lib, foiz stavkalarining dinamikasi investitsion jozibadorlik va kapital oqimlariga bevosita ta'sir qiladi. Yuqori foiz stavkalari milliy iqtisodiyotda sarmoyaviy faollikni pasaytirishi mumkin bo'lsa,

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asoslanib muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

past foiz stavkalari kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish orqali investitsion jarayonlarni jadallashtiradi.

